

**NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINING JAMOATCHILIK
MUHOKAMALARI JAMOATCHILIK NAZORATINING MUHIM SHAKLI
SIFATIDA**

Sherov Quvondiq Polvonnazarovich
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: quvondiq1191@gmail.com
tel.: 91 430 20 24

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamalari jamoatchilik nazoratining muhim shakli sifatida ochib berilgan. Shuningdek, jamoatchilik muhokamalarida fuqarolar ishtirokini ta'minlash, davlat ishlarini boshqarish hamda qarorlar qabul qilish jarayoniga jamoatchilikni keng jalb qilish, bu boradagi qonunchilikni yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, jamoatchilik muhokamasi, normativ-huquqiy hujjat, portal, taklif, onlayn.

Davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biri hisoblanib, barcha rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan. Jamoatchilik nazoratining sustligi davlat organlari mansabdor shaxslarining o'z mansab vakolatlarini suiste'mol qilishlariga, jamiyat manfaatlarini unutib qo'yishiga olib keladi¹. Shunga ko'ra, jamoatchilik nazorati instituti fuqarolik jamiyati uchun eng muhim institutlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining² 36-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston yuridik ensiklopediyasiga ko'ra, jamoatchilik nazorati – davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari (ins.lari),

¹ Маҳаллий давлат ҳокимиятида жамоатчилик нazorати: ўқув-амалий қўлланма / Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: БМТТД, 2022. – Б. 12.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://old.lex.uz/docs/-6445145>

shuningdek, davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazorat³.

Ko'plab rivojlangan demokratik mamlakatlarda jamoatchilik nazorati qonun loyihalari va davlat hayotining boshqa muhim masalalarining jamoat muhokamalari barobarida quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga petitsiyalar bilan murojaat qilish (fuqarolarning individual va jamoa tartibida murojaatlari);

hokimiyat faoliyati to'g'risida axborotning fuqarolar uchun ochiqligi (fuqarolar uchun davlat organlarining axborot jihatdan ochiq-oshkoraligi);

mahalliy o'zini o'zi boshqarish, fuqarolar yig'ilishlari va yig'inlari orqali fuqarolarning jamiyat ishlarini boshqarishda ishtiroki;

oshkoralik tarzida eshitishuvlar;

qonunchilik hujjatlari loyihalarining jamoat ekspertizasi;

jurnalistik tekshiruvlar va boshqalar⁴.

O'zbekistonda ham normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamalari jamoatchilik nazoratining muhim shakllaridan biridir. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida⁵ jamoatchilik muhokamasi jamoatchilik nazorati shakli sifatida keltirilgan. Ushbu Qonunga ko'ra, Ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalarini ommaviy muhokama qilish jamoatchilik muhokamasidir.

Shuningdek, Qonunning 13-moddasida, jamoatchilik fikrini o'rganish turli ijtimoiy guruhlarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishiga, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini ta'minlashga doir faoliyati to'g'risidagi fikrini baholash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etishdan iboratligi belgilangan.

Bundan ko'rinadiki, jamoatchilik muhokamasini tashkil etish fuqarolarning jamiyatda olib borilayotgan islohotlarga, qonunlarga munosabatini erkin bildirishlari uchun imkoniyat yaratish hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi jarayonida fuqarolar muhokamaga qo'yilgan loyihaning har bir moddasiga o'z fikr, taklif va mulohazalarini bildirishlari – bu loyihani muhokamaga qo'ygan davlat organi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu loyihaning kamchiligi, bo'shliqlarini to'ldirishlariga imkon yaratadi, ya'ni muhokama

³ Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Т. Адolat, 2009. – 704 б.

⁴ Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурдаги Давлат бошқаруви академияси. Тошкент-2015. 142-б.

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-son Qonuni. <https://old.lex.uz/docs/-3679092>

jarayoni davlat organi uchun loyihani ishlab chiqishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ko‘rsatib beruvchi ko‘zgu vazifasini o‘taydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yangi qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunda mavjud jamoatchilik muhokamalari to‘g‘risidagi me‘yorlarning ko‘pchiligi saqlangan holda “Normativ-huquqiy hujjatlarning jamoatchilik muhokamasi” degan 24-modda kiritildi⁶. Biroq, ushbu moddada Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining faqat onlayn muhokamasini o‘tkazish qoidalari belgilandi. Bundan ushbu moddaning mazmunini uning nomiga muvofiqlashtirish yoki buning aksini qilish zarurati ayon bo‘ladi.

O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, jamoatchilik muhokamasi barcha ijtimoiy ahamiyatga ega, ya‘ni ommaviy manfaatlarga taalluqli masalalar bo‘yicha o‘tkaziladi. Biroq, OAV va boshqa manbalardagi ma‘lumotlardan jamoatchilik muhokamalari, asosan, davlat organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini bo‘yicha onlayn o‘tkazilayotgani ayon bo‘ladi. Ushbu holatni mazkur muhokamalarni o‘tkazish tartibga solinganligi bilan izohlash mumkin. Mavjud tajriba asosida jamoatchilik muhokamalarining boshqa shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi⁷.

Jamoatchilik fikrini tahlil etish, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini kengaytirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yanada ochiqqligini ta‘minlash asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinishini sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish maqsadida 2019-yi 4-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4473-son Qarori⁸ qabul qilindi. Qarorda, ishlab chiquvchi-tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joylashtiriladigan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini jamoatchilik tomonidan muhokama qilish natijalari Adliya vazirligiga (huquqiy ekspertiza uchun) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga (ko‘rib chiqish uchun) kiritilishi, bunda, qoida tariqasida, kelib tushgan takliflarni ko‘rib chiqish natijalari ko‘rsatilishi majburiyligi belgilandi.

Biroq, normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portaliga joylashtirilgan loyihalar yuzasidan fuqarolarning aksariyat takliflari loyihani joylashtirgan organ tomonidan javobsiz

⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni. <https://old.lex.uz/docs/-5378966>

⁷ Йўлдошев А.Э. Ўзбекистонда жамият ва давлат ишларини бошқаришда фуқаролар иштирокининг ташкилий-ҳуқуқий масалалари. Юридик фанлари доктори (DSc) диссертацияси. 2023. 231-6.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4473-son Qarori. <https://old.lex.uz/docs/-4538242>

qoldirilmogda⁹. Jumladan, portalda 2023-yil 30-iyul holatiga 20 443 ta loyiha mavjud bo‘lib, loyihalar yuzasidan bildirilgan 52 809 ta taklif va mulohazalar javobsiz qoldirilgan¹⁰. Onlayn muhokamalarda jamoatchilik fikrining inobatga olinmasligi muhokamalarni boshqa shakllarda ham o‘tkazishni taqozo qiladi.

Milliy tadqiqotchilar normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy tarmoqlar (facebook, telegram, vkontakte)da ham o‘tkazishni¹¹, “telegram messenjeri”da maxsus botlar versiyasini ishga tushirishni taklif etishadi¹².

Mazkur jarayon qonun loyihalarini yuzasidan fuqarolarning erkin fikr bildirishiga, yanada takomillashgan qonunlar qabul qilinishiga olib keladi¹³. Davlat esa jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirib borish zarur. V.A. Sivitskiy ta’kidlaganidek, davlat ratsionalizmi g‘oyasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish institutining asosiga aylanishi kerak, toki mamlakat taraqqiyoti uchun foydali bo‘lgan birorta ham g‘oya o‘tkazib yuborilmasin¹⁴.

Davlat esa kelib tushayotgan takliflarni hisobga olish va tizimlashtirishni tashkil etishi, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatning u yaratilgan jamiyatning kayfiyati va ehtiyojlariga mos kelishini ta’minlashi shart.

Shu o‘rinda yana bir narsani ta’kidlash o‘rinli, ya’ni, jamoatchilik muhokamalarini tartibga soluvchi normativ hujjatlarda bir-biriga zid bo‘lgan, shuningdek takrorlanuvchi normalarning mavjudligi bu boradagi qonunchilikni tizimlashtirishni talab etadi.

Davlat hokimiyati va fuqarolarning jamoatchilik muhokamasi orqali o‘zaro hamkorligi, qonun ijodkorligi jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiyaning qo‘shimcha elementini joriy etish, davlat organlari faoliyatiga ishonchni oshirish va shu orqali fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasida muloqotni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashishadi. Umuman olganda, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda jamoatchilikni jalb qilish quyidagi maqsadlarga erishish imkonini beradi:

davlat boshqaruvida fuqarolar ishtirokini kuchaytirish;

huquqiy tartibga solishning yanada maqbul yechimlarini ishlab chiqish;

normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiquvchilar va jamoatchilik o‘rtasida aloqa o‘rnatish;

⁹ Йўлдошев А.Э. Ўзбекистонда жамоатчилик муҳокамаларини ҳуқуқий тартибга солишнинг долзарб масалалари // Юриспруденция ҳуқуқий илмий-амалий журнали, 2021/4. – Б. 19.

¹⁰ Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portali. <https://regulation.gov.uz/oz/statistics>

¹¹ Sherov Q.P. Qonun loyihalarini umumxalq muhokamalarini huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2021. 69-b.

¹² Худойбериев А.К. Хуқуқ ижодкорлигини социологик ва эксперт-таҳлилий таъминлашни такомиллаштириш. Юридик фанлари доктори диссертацияси автореферати. Т, 2020. 20-бет

¹³ Йўлдошев А.Э. Онлайн перспективни общественни обсуждений законодательных предложений в Республике Узбекистан // Сборник материалов VI Международной научно-практической конференции «Информационные технологии и право (Правовая информатизация – 2018). – г. Минск 17 мая 2018 г. – С. 349-353.

¹⁴ Сивицкий В. А. Общественное обсуждение законопроектов: демократия или государственный рационализм // Юридическая техника. 2014. № 8.

qonun ijodkorligi jarayonining qonuniyligini oshirish;

fuqarolarning huquqiy tarbiyasini yanada mustahkamlash.

Shunga ko'ra, davlatda qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari loyihalarining muhokamalariga keng xalq ommasini jalb qilish, loyihalarni takomillashtirish yuzasidan takliflarni fuqarolardan olish mexanizmini yanada takomillashtirish, bu borada internet texnologiyalaridan foydalanishni tobora kengaytirish zarur.

Jamiyatning real ehtiyojlarini aniqlash, huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, eng muhimi, fuqarolarning ham qonunga, ham davlatga ishonchini oshirishda jamoatchilik muhokamasining ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Yuqoridagilarga ko'ra, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasi qonun ijodkorligi faoliyatining muhim va istiqbolli instituti bo'lib, qonun ijodkorligi jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda qo'shimcha intellektual resurslarni jalb etish imkonini beradi;

ikkinchidan, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan, xususan, internet imkoniyatlaridan foydalanish fuqarolarning jamoatchilik muhokamasida ishtirok etishini soddalashtiradi va undan foydalanish imkoniyatini oshiradi;

uchinchidan, jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish bo'yicha mavjud qonunchilik bazasidagi bir-biriga zid bo'lgan normalarni bartaraf qilib, qonunchilikni unifikatsiyalash va "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamalari to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ommaviy muhokama qilish tartibini yanada takomillashtiradi va soddalashtiradi;

to'rtinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga qanday loyihalar joylashtirilayotganligi hamda ularning jamiyat hayotiga qiladigan ijobiy ta'siri to'g'risida umumlashgan ma'lumotlarni muntazam ravishda aholiga yetkazish, ularni yangi qabul qilinadigan qonunchilik hujjatlaridan xabardor qilish maqsadida ommaviy axborot vositalarida, jumaladan, televideniya, radioda, internet tarmog'ida, ko'chalardagi bannerlarda, elektron tablolarida yoritib borish fuqarolarning jamoatchilik muhokamalarida faol ishtirok etishlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маҳаллий давлат ҳокимиятида жамоатчилик назорати: ўқув-амалий қўлланма / Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: БМТТД, 2022. – Б. 12.
2. О'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://old.lex.uz/docs/-6445145>
3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Т. Адолат, 2009. – 704 б.

4. Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси. Тошкент-2015. 142-б.
5. О'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-son Qonuni. <https://old.lex.uz/docs/-3679092>
6. О'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son Qonuni. <https://old.lex.uz/docs/-5378966>
7. Йўлдошев А.Э. Ўзбекистонда жамият ва давлат ишларини бошқаришда фуқаролар иштирокининг ташкилий-ҳуқуқий масалалари. Юридик фанлари доктори (DSc) диссертацияси. 2023. 231-б.
8. О'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4473-son Qarori. <https://old.lex.uz/docs/-4538242>
9. Йўлдошев А.Э. Ўзбекистонда жамоатчилик муҳокамаларини ҳуқуқий тартибга солишнинг долзарб масалалари // Юриспруденция ҳуқуқий илмий-амалий журнали, 2021/4. – Б. 19.
10. Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portali. <https://regulation.gov.uz/oz/statistics>
11. Sherov Q.P. Qonun loyihalarini umumxalq muhokamalari huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2021. 69-b.
12. Худойбериев А.Қ. Ҳуқуқ ижодкорлигини социологик ва эксперт-таҳлилий таъминлашни такомиллаштириш. Юридик фанлари доктори диссертацияси автореферати. Т, 2020. 20-бет
13. Йўлдошев А.Э. Онлайн перспективы общественных обсуждений законодательных предложений в Республике Узбекистан // Сборник материалов VI Международной научно-практической конференции «Информационные технологии и право (Правовая информатизация – 2018). – г. Минск 17 мая 2018 г. – С. 349-353.
14. Сивицкий В. А. Общественное обсуждение законопроектов: демократия или государственный рационализм // Юридическая техника. 2014. № 8.